

ARTPEDAGOGIKA ORQALI TALABALARDA VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Madaliyev Raxmiddin Ismoilovich

*Farg'ona davlat universiteti,
harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada artpedagogika metodlari orqali talabalar orasida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish masalalari tahlil etiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida san'at vositalari (adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, teatr) orqali milliy g'urur va Vatanga bo'lgan muhabbatni mustahkamlash imkoniyatlari o'rganiladi. Shuningdek, artpedagogikaning tarbiyaviy ahamiyati, uning psixologik ta'sir kuchi va ta'lim jarayonidagi samaradorligi haqida ilmiy-nazariy asoslar bayon qilinadi. Maqolada innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan boyitilgan artpedagogik yondashuvlar vatanparvarlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida taklif etiladi.

Kalit so'zlar: artpedagogika, vatanparvarlik, ta'lim texnologiyalari, talabalar, san'at, tarbiya, milliy g'urur, innovatsion yondashuv.

IMPROVING THE TECHNOLOGY OF DEVELOPING PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH ART PEDAGOGY

Annotation: This article analyzes the issues of improving the technology of fostering and developing patriotism among students through art pedagogy methods. Based on modern pedagogical approaches, the possibilities of strengthening national pride and love for the homeland through artistic means (literature, visual arts, music, theater) are explored. Additionally, the educational significance of art pedagogy, its psychological impact, and its effectiveness in the learning process are scientifically and theoretically substantiated. The article proposes art pedagogical approaches enriched with innovative educational technologies as an effective means of developing patriotism.

Keywords: art pedagogy, patriotism, educational technologies, students, art, upbringing, national pride, innovative approach.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ПАТРИОТИЗМА У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ АРТПЕДАГОГИКУ

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы совершенствования технологии формирования и развития патриотизма среди студентов с использованием методов артпедагогике. На основе современных педагогических подходов изучаются возможности укрепления национальной гордости и любви к Родине через художественные средства (литература, изобразительное искусство, музыка, театр). Кроме того, рассматривается воспитательное значение

артпедагогика, её психологическое воздействие и эффективность в образовательном процессе с научно-теоретической точки зрения. В статье предлагаются артпедагогические подходы, обогащённые инновационными образовательными технологиями, как эффективное средство развития патриотизма.

Ключевые слова: *артпедагогика, патриотизм, образовательные технологии, студенты, искусство, воспитание, национальная гордость, инновационный подход.*

KIRISH

Vatanparvarlik milliy merosimizning qadimiy tarixi va ma'naviy manbalariga borib ulanadi. Jumladan, "Avesto" adabiy yodgorligida, "Go'ro'g'li", "Alpomish" singari qahramonlik dostonlarida, "Temur tuzuklari", "Mahbub ul-qulub", "Turkiy guliston yohud axloq" kabi ijtimoiy-axloqiy pandnomalarda harbiy vatanparvarlik g'oyalarining targ'iboti bilan bog'liq masalalarni axloqshunoslik kontekstida o'rganish g'oyatda dolzarbdir. Chunki, yoshlarda g'urur, or-nomus, sha'n, ishonch va sadoqat kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish bevosita vatanparvarlik shartlari asosida reallikka aylanadi.

Ta'kidlash zarurki, o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlarida vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg'u "muhabbat", "ishonch", "sadoqat" kabi axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o'rin olganligi uchun ham davrlar mobaynida o'z mavqeini yo'qotmay kelayotgan falsafiy kategoriyadir. Vatanparvarlik o'zida birlashtirish, yo'naltirish, jipslashtirish, safarbar qilish kabi axloqiy, sifatlarni mujassam etganligi uchun o'zbek xalqi ma'naviy merosiga taalluqli barcha manbalarda ulug'lanadi.

Vatanparvarlik tuyg'usi nasldan naslga o'tadigan, tug'ma his-tuyg'ular jamlanmasi emas, balki, tarbiya jarayonining mahsulidir. Vatanparvarlik vatan boylıkları-yu, go'zal tabiatidan faxrlanishgina emas, balki uni yanada mukammalroq his qilish, shu zamin uchun ter to'kish, xalqining farovon xayoti uchun o'z manfaatidan yurtdoshlari manfaatini yuqori qo'yish, vatan himoyasiga shay turish, xalq qadriyatlarini kelajak avlodlarga meros qilib qoldirishda o'z hissasini qo'shish bilan namoyon bo'ladigan hatti-harakatlar majmuasidir. Shu bilan birga vatanga

e'tiqod vatanparvarlikni to'ldirib, mukammallashtirib boruvchi dunyoqarashning bir bo'lagidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurish bevosita talabalarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liqdir. Mamlakatimizda talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ta'lim - tarbiyaning bosh maqsadi etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: «Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda»-deb alohida qayd etdi. Demak, talabalarning tarbiyasi, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari, avvalambor, shu jamiyatni qurishga faol ishtirok etadigan, umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallagan va unga sodiq, iymon-e'tiqodli, teran aql egasi, pok axloqli, o'z haq-huquqlari, burch va mas'uliyatini chuqur anglaydigan insonlarni tarbiyalash barobarida amalga oshiriladi va oliy o'quv yurtlari, muhim ijtimoiy institut bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, har tomonlama raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, talabalarda yuksak vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish muhim vazifa sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish"[1] masalasi muhim vazifa etib belgilandi. Bu esa, talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish mazmuni, bosqichlari, modeli, texnologiyasi va metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining ikkinchi bobida "oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy

mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish" masalasi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tanlangan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik faoliyat jarayonini yoritishda asosiy tushunchalar mohiyatini to'g'ri anglash tadqiqot yo'nalishini aniq belgilab olish imkonini beradi. Ana shu sababli tadqiqotda "talaba", "vatanparvarlik", "vatanparvarlik tarbiyasi", "pedagogik texnologiya", "artpedagogika" kabi tushunchalar mazmuni yoritib berildi.

Artpedagogika talabalarda vatanparlikni rivojlantirishning anashunday samarali vositalaridan biri sanaladi.

Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik va metodik xususiyatlarini aniqlash; artpedagogika vositasida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning metodik tuzilmasini belgilash; tizimli yondashuv asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va artpedagogika vositasida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish - mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Bundan tashqari, pedagogik modelning tizimli yondashuvga asoslangan holda ishlab chiqilishi, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga, talabalarda vatanparvarlikni mustahkamlashga imkon yaratadi. Artpedagogika vositasida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish texnologiyasining takomillashtirilishi, o'quv jarayonining sifatini oshirishga, pedagogik maqsadlarga erishish uchun zarur innovatsion metodlar va usullarni qo'llashga yordam beradi.

artpedagogika vositasida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish texnologiyasining mazmunli-prosessual va tashkiliy-pedagogik qismlari o'zida kognitiv – amaliy faoliyat – refleksiya birligini aks ettirib, germenevtik ta'lim texnologiyasi, faol, interfaol metodlarning o'zaro integratsiyasini individual va integral kognitivlik darajasi barqarorligini ta'minlash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish xususiyatlari va pedagogik-psixologik o'ziga xosliklari, talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish bosqichlari, vazifalari, ko'rsatkichlari, faoliyatni tashkil etish shakllari, darajalari, hamkorlik sohalarining aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning maqbul umumpedagogik, xususiy-metodik va lokal (interfaol metodikalar) texnologiyalarining takomillashtirilganligi, artpedagogika vositasida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasini takomillashtirilganligi va didaktik modelini ishlab chiqilganligi, talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishga doir o'quv moduli va to'garak mashg'ulotlari dasturlarining yaratilganligi, talabalarda vatanparvarlikni rivojlanganligini baholashning diagnostik usullarini ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Biroq, ba'zi ta'lim tizimlarida vatanparvarlikka oid mavzular hali to'liq yoritilmagan. Bu esa talabalar orasida global madaniyatga intilishning ortishi va milliy qadriyatlarning ikkinchi o'ringa surilishi kabi muammolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu muammoni hal qilish uchun ta'lim muassasalarida vatanparvarlikni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratish zarur. Ta'lim tizimida vatanparvarlikni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy tadbirlar va metodikalar doimiy ravishda yangilanib borilishi kerak.


Vatanparvarlikni rivojlantirish yo'llari ko'plab innovatsion va samarali usullarni o'z ichiga oladi. Masalan, talabalar uchun vatanparvarlikka oid treninglar, tarixiy joylarga ekskursiyalar qilish va ko'rik-tanlovlar ashkil etish orqali ularning vatanparvarlik hissini kuchaytirish mumkin. Ommaviy axborot vositalari orqali ijobiy milliy obrazlarni targ'ib qilish va ta'lim dasturlarini yangilash ham bu jarayonda muhim o'rin tutadi. Har bir fan doirasida vatanparvarlik g'oyalarini singdirish orqali talabalarda milliy qadriyatlarni hurmat qilish va ularni jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga undash mumkin.

Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Bu jarayon shunchaki talabalarining ona yurtga bo'lgan

muhabbatini oshirish, balki ularning milliy qadriyatlar, tarix, madaniyat va urf-odatlariga hurmat hissini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Aksariyat hollarda, globalizatsiya, axborot oqimi va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ostida talabalar o'z milliy ildizlaridan uzoqlashishi mumkin. Bunday holatni bartaraf etish uchun vatanparvarlik hissini mustahkamlash va talabalarni o'z millatiga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan maxsus ta'limiy tadbirlar, dasturlar va metodlarni ishlab chiqish zarurdir. Bu jarayon, o'z navbatida, ta'lim muassasalarining pedagogik yondashuvlariga yangi talablarga javob berishni taqozo etadi.

Bu yondashuvlarni amalga oshirishda ilmiy tadqiqotlar va amaliy metodikalar uyg'unligi asosida, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Bunda talabalar uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyatlarni ham o'z ichiga olgan integratsiyalashgan yondashuv talab etiladi. Bu esa yoshlarning kelajakdagi fuqarolik mas'uliyatini oshirib, ularning ijtimoiy faolligini ta'minlaydi.

Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi maqsadga yo'naltirilgan, tizimli tavsifga ega quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oldi: analitik va tashkiliy-tayyorlov – talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishga oid ma'lumotlarni to'plash, tahlil etish, umumlashtirish va texnologiyani amalga oshirish bosqichlarini aniqlashtirish, pedagogik jarayon shakl, metod va vositalarini tanlash, professor-o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish; faoliyatga doir va monitoring – artpedagogika vositasida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish texnologiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish, jarayon dinamikasini baholash, zaruriyat yuzaga kelganda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritish; natijaviy va baholovchi – natijalarni baholash va ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning istiqboldagi vazifalarini aniqlashtirish. Texnologiya rasm ko'rinishida quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.



Texnologiya ikki qismdan tashkil topgan: mazmunli-prosessual va tashkiliy-pedagogik. Texnologiyaning mazmuni o'zida kognitiv – amaliy faoliyat – refleksiya birligini aks ettirdi.

Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning uch bosqichdan iborat metodik xaritasi ishlab chiqildi va mashg'ulotlar jarayonida qo'llanildi.

Tahliliy materiallar asosida hamda oliy ta'lim muassasalarida shu kunga qadar artpedagogikani alohida fan sifatida o'qitilmasligini hisobga olgan holda, pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tanlov fanlar qismiga uchta moduldan iborat "Artpedagogika" nomli fani kiritildi va mazkur fanning dasturi ishlab chiqildi.

Shuningdek, talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishda "Artpedagogika" fanining amaliy mashg'ulotlarida qo'llash bilan bog'liq o'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb etish yaxshi samara berdi. O'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali talabalar o'zlarida vatanparvarlikni rivojlantirish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish uchun keng imkoniyatga ega bo'lishdi.

Loyihalarni tayyorlash talabalardan ko'proq mustaqil ishlashni talab etadi. Mazkur jarayonda ular katta hajmdagi ma'lumotlarni izlash va qayta ishlash bilan shug'ullanishdi.

Loyihalarning himoyasi "Pedagogik" turkumiga kiruvchi fanlar hamda "Artpedagogika" fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'tkazildi. Talabalar o'z

loyihalarini himoya qilish jarayonida videoroliklar, qisqa metrajli filmlar, o'zlari saxnalashtirgan spektakllarning yozib olingan parchalari, o'zlarida katta ta'surot qoldirgan tasviriy va amaliy san'at namunalarining foto albomlarini tayyorlashdi, shuningdek, loyihaning ijodiy jihati ham baholandi.

Taklif qilingan loyihalar mavzulari uch yo'nalishga ajratildi: vatanparvarlik tarbiyasi, "ommaviy madaniyat" va yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy imunitetni shakllantirish, vatanparvarlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi artpedagogik vositalar. Mazkur mavzulari tavsiyaviy tavsifga ega bo'lib, talabalar ko'rsatilgan yo'nalishlar doirasida o'zlari ham erkin ravishda loyiha mavzusini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Loyihalar individual va kichik guruhlarda bajarildi. "Artpedagogika" fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar barcha yo'nalishdagi mavzular bo'yicha loyihalar tayyorlashdi. Mustaqil ish topshirig'i sifatida egallangan bilimlarni mustahkamlash maqsadida talabalarga esse yozish topshirildi.

"Loyiha" ta'lim texnologiyasining tashkiliy-metodik komponenti talabalarda refleksiv nuqtai nazarni qaror toptirishni talab etib, artpedagogik vositalar bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash asosida vatanparvarlikni rivojlantirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Muammo yuzasidan zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy o'lchov mezonlari shaxsni rivojlantirishning ko'proq yuqori darajasining egallaganligini aks ettiradi. Tadqiqotda quyidagi to'rt o'lchov mezoni aniqlashtirildi: 1) motivatsion-qadriyatli; 2) bilishga doir; 3) jarayonli-faoliyatga doir; 4) refleksiv-baholovchi.

Aniqlashtirilgan mezonlar asosida talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish darajasining ko'rsatkichlari belgilab olindi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika orqali rivojlantirishning ilmiy-metodik tavsiyalari keltirilgan:

- Talabalar milliy musiqa va qo'shiqlar orqali xalqning tarixi, urf-odatlarini, milliy qahramonlari bilan yaqindan tanishadi. Milliy musiqa asarlari va qo'shiqlar talabalarga tarixiy voqealar va shaxslar haqida obrazli tushunchalar beradi, bu orqali ular Vatanga nisbatan ichki tuyg'ularni mustahkamlaydi.

- Milliy adabiyot va poeziya asarlari vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirishda kuchli vositalardan biridir. Shoir va yozuvchilarning Vatan, xalq va millatga bagʻishlangan asarlari talabalarning milliy iftixor tuygʻusini uygʻotishga xizmat qiladi. Talabalar oʻzlarining badiiy chiqishlarida yoki oʻquv dasturlarida ushbu asarlarni ifodalaydi, oʻrganadi va oʻzlashtiradi.

- Drama va teatr orqali vatanparvarlikni targʻib qilish, bunda milliy qahramonlar va tarixiy voqealarni sahnalashtirish orqali talabalarda ichki his-tuygʻularni uygʻotish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga erishiladi. Masalan, tarixiy spektakllar va qahramonlar hayoti sahnalari talabalarning emotsional olamiga taʼsir etadi va ularda milliy qahramonlarga oʻxshash orzusi uygʻonadi.

- Ijtimoiy loyihalar va koʻngilli tadbirlarda talabalar milliy sanʼat va madaniyatni ommalashtirish, tarixiy joylarni saqlash, tabiatni asrash kabi ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali Vatanga boʻlgan muhabbat va masʼuliyat tuygʻusini rivojlantiradi. Bu loyihalar orqali ularning fuqarolik masʼuliyati va ijtimoiy faoliyati shakllanadi.

- Vatanparvarlikni rivojlantirishda sanʼatning turli yoʻnalishlaridan foydalanish, milliy musiqa va qoʻshiqlar talabalarda milliy iftixor tuygʻusini shakllantirishda samaradorligini koʻrsatadi. Milliy musiqa va qoʻshiqlar orqali oʻquvchilar oʻz millati tarixi va madaniyatini his qiladi.

- Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish oʻz navbatida ijtimoiy munosabatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, oʻz yurtiga cheksiz muhabbatining namoyon boʻlishi bilan bogʻliq boʻlib, talabaning mavjud egallangan tajribalarni hisobga olgan holda maʼlumotlarni ongli idrok etish, tahlil qilish, baholash qobiliyati bilan tavsiflanuvchi shaxsiy qadriyatga yoʻnaltirilganlik nuqtai nazaridan yot gʻoyalarga nisbatan murosasiz munosabat, jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashishga tayyorgarligini ifoda etadi.

- Talabalarda vatanparvarlikni art pedagogika vositasida rivojlantirish-bu nafaqat sanʼat asarlari orqali estetik va ijodiy tafakkur rivojlantirish, balki milliy ong, madaniyat, tarix va milliy qadriyatlarni tushunishga yoʻnaltirish jarayonidir.

Art pedagogika san'at va ta'limni birlashtirgan holda talabalar bilan milliy g'urur, yurtga bo'lgan muhabbatni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Bundan ko'rinib turibdiki biz pedagoglar xamda yoshlar tarbiyasiga ma'sul bo'lgan barcha soha vakillari, davlatimiz tomonidan chiqarilgan qaror va qonunlarda ko'rsatilgan maqsad va asosiy vazifalaridan kelib chiqib, yoshlarni o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishimiz zarurdir.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarda davlat ramzlariga cheksiz muhabbat va hurmat, tarixiy-madaniy merosga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish maqsadida "Vatanparvarlikka oid eng yahshi badiiy asarlar bilimdoni", "Vatanparvarlikning eng yaxshi milliy targ'ibotchisi", va "Vatanparvarlikka oid eng yaxshi loyiha muallifi" tanlovlarini tashkil etish va o'tkazish maqsadga muvofiq.

Pedagogik-psixologik fanlar o'quv dasturlariga talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish, "mafkuraviy imunitet"ni mustahkamlash, yot g'oyalar, "ommaviy madaniyat" ta'siridan himoyalalanish va buzg'unchi g'oyalarga qarshi murosasizlikni o'rgatish metodikasi bilan bog'liq mavzularni kiritish lozim.

O'z navbatda milliy qadriyatlar, ona zamin tabiati, milliy xalq san'ati, sharqning badiiy madaniyati, xalqimiz tarixiga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish. Bu borada asosiy manba sifatida ARTpedagogika vositalari orqali milliy an'analarga boy adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, teatr va kino san'atning boshqa turlari bilan tanishtirish ya'ni yurtimizni diqqatga sazovor joylarga ekskursiyalar uyushtirish, o'zbek xalqining o'tmishdagi va zamonaviy turmush tarzi aks etgan milliy spektakllarga va muzeylarga tashriflar sonini oshirish.

Bularning jamlanmasi ya'ni bu vositalar orqali talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
2. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich "Factors and prospects for the development of student youth-military patriotic education by means of artpedagogy (through theater

- training)" // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal Volume:10 Issue:2 February 2024 Journal DOI:10.36713/epra 2013. – B.404-406.
3. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Artpedagogika vositasida (teatr sa'nat orqali) talaba yoshlarni –harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari" // FarDU Ilmiy xabarlari //Farg'ona, 3/2024y. , B.372-375.
4. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari"// Farg'ona, 4/2024 yil. – B.296-300.
5. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - Prospects for the Development of Patriotism in Students in the Educational Procees Innvative Technologika: Methodel Research journal Vol: 3, No 3, 2024. – P.1-6.
6. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish: artpedagogikaning didaktik imkoniyatlari"// Qoqon DPI Ilmiy xabarlari //Farg'ona, 4/2024y. , B.18-26.
7. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari" NamDU Ilmiy axborotnomasi //Namangan, 11/2024y. , B.775-778.
8. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasining bosqichlari. IJODKOR OQITUVCHI JURNALI //5-dekabr.2024y.44-son, B.107-113.
9. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Talaba-yoshlarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi" // O'zMU xabarlari. – 2023. – 1/8/1. B.137-139.
10. Madaliyev Rahmiddin Ismoilovich - "Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda jaxon art pedagogik tajribasidan foydalanish, mamlakatlar ta'lim tizim yutuqlari" Farg'ona -2023 yil, 30 - sentyabr, B.375-387.